

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№3

2026
MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 271 sahifa.
2026-yil, mart

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

KORXONALARDA ICHKI AUDIT TIZIMINING BOSHQARUV QARORLARI QABUL QILISHDAGI O'RNI	24
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGI VA SOLIQ TUSHUMLARI DINAMIKASI: O'ZBEKISTON MISOLIDA ILMIY TAHLIL	30
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI KELITIRIB CHIQARUVCHI ASOSIY OMILLAR HAMDA IQTISODIYOTGA TA'SIRI	37
Toxtabayev Oybek Odilovich	
QISHLOQ XO'JALIGI OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV	42
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTON GLOBAL-IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI	48
Kuvatova Oliya Sheraliyevna	
QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI KAPITAL BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI MOLİYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	54
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR DAVRIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI	61
Yangiboyev F.B.	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI ERTA ANIQLASH VA BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN RISK-INDEKS MODELİ	68
Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich, Rajabov Shoxrux Suvon o'g'li	
RUX VA QO'RG'OSHINNI SELEKTIV AJRATIB OLISHNI KOMBINATSIYALASH TEXNOLOGIYASI VA NAZARIYASI.....	74
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Haqberdiyev Dilshod Qodir o'g'li	
UY-JOY QURILISHI HAJMINI UZOQ MUDDATLI PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	81
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA IQLIM VA TABIIY OFATLAR NATIJASIDA YETKAZILDAN TALOFATLARNI DAVLAT TOMONIDAN KOMPENSATSIYA QILISH MEKANIZMI.....	85
Sattorov Orifjon Boymurodovich	
AHOLI MOLİYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH MEKANIZMLARI.....	90
Abdug'aniyev Uchqun Habibulla o'g'li	
O'ZBEKISTON QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA TENDENSIYALARI	96
Musaeva Aynura Abayxolievna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL INFRASTRUCTURE TRANSFORMATION IN THE CONTEMPORARY ENVIRONMENT.....	104
Normurodov Khusan Eshmakmatovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI BAHOLASH YO'LLARI	108
Begamov S.X.	
DEBITORLIK QARZLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI	112
Normatova Gulmira Xayrullaevna	



SOLIQLARNI PROGNOZLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI.....	118
Ergashov Jamshid Ashurovich	
MEHNAT XARAJATLARI HISOB: NAZARIY ASOSLAR, USULLAR VA BOSHQARUVDA AHAMIYATI.....	126
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
KORPORATIV XIZMATLARNING BANK FOYDASIGA TA'SIRI: KOMISSION VA FOIZLI DAROMADLAR TAHLILI	131
Qurbonov Abror Abdullayevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA TASHKILY MEXANIZMLARI	136
Djamalov G'ofir Oribjanovich	
OCHIQLIK INDEKSI VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SAMARADORLIGI: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING INSTITUTSIONAL TAHLILI	144
Dilshod Pulatov, Uchqun Abdug'aniyev	
DUNYO SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIVAVIY HOLATI VA NATIJALARI TAHLILI	153
Alimov Baxodir Batirovich	
QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	160
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
QURILISH TASHKILOTLARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLARI	164
Muxibova Guli Yarkinovna, Sharifxodjayeva Odina Ulug'bek qizi	
AXBOROT-RESURS MARKAZLARINING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRINI BAHOLASH	168
Pirmedova Xayitgul Muxammedovna	
IJTIMOY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI: XALQARO TAJRIBA VA INSTITUSIONAL YONDASHUVLAR	173
Bafoyev Farrux Jo'raqulovich	
KORXONALARDA AI-DRIVEN "DECISION SUPPORT SYSTEMS" (DSS)NI JORIY ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Mardanova Ra'no	
STRENGTHENING THE FINANCING OF FAMILY-OWNED ENTERPRISES IN UZBEKISTAN THROUGH BANK CREDIT	186
Baymuratova Zina Aqilbekovna, Ibadullaeva Asal Ulugbek qizi	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH	192
Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich	
ATTRACTING INVESTMENTS FROM FINANCIAL MARKETS AND FACTORS INFLUENCING THE INCREASE OF THEIR ATTRACTIVENESS	196
Kholov Sherali Akhrorboyevich	
MARKAZIY OSIYODA TRANSCHEGARAVIY SUV RESURSLARINI BOSHQARISH VA ADOLATLI TAQSIMLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	200
Matkarimov Mansur	
XALQARO XIZMATLAR SAVDOSIDA TIBBIY TURIZMNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	206
Farxodova Shohnova Umidbek qizi	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING KO'P OMILLI INDIKATORLARI TIZIMI	213
Ibroximov Iloxomjon Shavkatjon o'g'li	
SANOAT KORXONALARINI IQTISODIY FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI	219
Tillayeva Barno Ramiziddinova	
NOTIJORAT TASHKILOTLAR FAOLIYATIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVI VA AUDITORLIK HISOBOTLARINING O'ZIGA XOSLIGI	224
Xolmizayev Ulug'bek Abdulazizovich, Ubaydullayev Toxirjon Abdullajanovich	



ЦИФРОВЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ РЕИНТЕГРАЦИИ ВОЗВРАЩАЮЩИХСЯ ТРУДОВЫХ МИГРАНТОВ: МЕЖДУНАРОДНАЯ ПРАКТИКА И ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ КЫРГЫЗСТАНА.....	230
Амантурова Дилбара Кыдыкбековна	
РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЛЕКСИКИ В ЯЗЫКОВОЙ ПОДГОТОВКЕ ИНОСТРАННЫХ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКОГО ПРОФИЛЯ.....	237
Асрарова М.У.	
О СКОРИНГОВЫХ МЕТОДАХ ЭКСПРЕСС-АНАЛИЗА ДОХОДНОСТИ АКЦИЙ УЗБЕКСКИХ ЭМИТЕНТОВ.....	242
Ирмухамедова Муслима Дилшодовна	
UY-JOY QURILISHIDA ESKROU MEXANIZMLARINI JORIY ETISH ORQALI INVESTITSION XAVFSIZLIK VA MOLIYAVIY SHAFFOFLIKNI TA'MINLASH	247
Karimov Inomjon Ortikbaevich	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MASALALARI	254
Kamoliddinov Ilxomjon Muxammadjonovich, Kobilov Murod Vakkosovich	
TIJORAT BANKLARI RAQOBATBARDOSHLIGINING MOLIYAVIY BARQARORLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	259
Axmedov Toxirjon Xasanjon o'g'li	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ENERGETIKA VA ISHLAB CHIQARISH SALOHİYATINING ROLI	264
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	



SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ENERGETIKA VA ISHLAB CHIQUARISH SALOHIYATINING ROLI

Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiy universiteti mustaqil tadqiqotchisi, PhD.

ORCID: 0009-0003-7585-5695

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasida elektr energetikasi va sanoat ishlab chiqarishining rivojlanish dinamikasi hamda uning korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashdagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda 2010-2024-yillar davomida elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, tog'-kon sanoati rivoji hamda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish sur'atlari hududlar kesimida o'rganilgan. Tahlil natijalari energetika infratuzilmasining rivojlanishi, sanoat ishlab chiqarishining kengayishi va investitsiya jarayonlarining faollashuvi korxonalar barqaror faoliyat yuritishi hamda ularning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashda muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, hududiy tafovutlar va sanoat rivojlanishining strategik yo'nalishlari aniqlangan.

Kalit so'zlar: korxonalar iqtisodiy xavfsizligi, sanoat ishlab chiqarishi, elektr energetikasi, energetika infratuzilmasi, iqtisodiy barqarorlik, tog'-kon sanoati, hududiy rivojlanish, investitsiyalar, ishlab chiqarish salohiyati.

Abstract. The article analyzes the dynamics of the development of the electric power industry and industrial production in the Republic of Uzbekistan and their role in ensuring the economic security of enterprises. The study examines the volume of electricity generation, industrial production indicators, the development of the mining industry, and the growth rates of consumer goods production across regions during 2010-2024. The results show that the development of energy infrastructure, expansion of industrial production, and the activation of investment processes are key factors for ensuring the stable functioning of enterprises and strengthening their economic security. The study also identifies regional disparities and strategic directions for industrial development.

Keywords: economic security of enterprises, industrial production, electric power industry, energy infrastructure, economic stability, mining industry, regional development, investments, production capacity.

Аннотация. В статье проанализирована динамика развития электроэнергетики и промышленного производства в Республике Узбекистан, а также их значение в обеспечении экономической безопасности предприятий. В исследовании рассмотрены показатели производства электроэнергии, объемы промышленной продукции, развитие горнодобывающей промышленности и темпы производства потребительских товаров в разрезе регионов за 2010-2024 годы. Результаты анализа показывают, что развитие энергетической инфраструктуры, расширение промышленного производства и активизация инвестиционных процессов являются важными факторами обеспечения стабильной деятельности предприятий и укрепления их экономической безопасности. Кроме того, выявлены региональные различия и стратегические направления развития промышленности.

Ключевые слова: экономическая безопасность предприятий, промышленное производство, электроэнергетика, энергетическая инфраструктура, экономическая устойчивость, горнодобывающая промышленность, региональное развитие, инвестиции, производственный потенциал.



KIRISH

O'zbekiston Respublikasida sanoatni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash, raqobatbardoshligini oshirish hamda eksport salohiyatini kengaytirishda muhim omil hisoblanadi. Mustaqillikdan keyingi davrda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda innovatsion loyihalarni rivojlantirish orqali milliy ishlab chiqarish salohiyati tobora mustahkamlanib bormoqda. Ayniqsa, neft-gaz, kimyo, metallurgiya va to'qimachilik tarmoqlarida amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlari sanoatning milliy daromaddagi ulushini oshirishga xizmat qilmoqda.

Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, energiya samaradorligini oshirish va resurslarni tejashga qaratilgan yondashuvlar sanoat ishlab chiqarishining samaradorligini yanada kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, hududiy sanoatni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish orqali mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga muhim hissa qo'shilmogda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat korxonalari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu masala ko'plab olimlar tomonidan korxonalarning barqaror faoliyat yuritishi, ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish hamda tashqi va ichki tahdidlarga bardosh berish qobiliyati bilan bog'liq holda o'rganilgan.

Xususan, I. Ansoff va M. Porter tadqiqotlarida korxonalarning raqobatbardoshligi hamda strategik boshqaruv tizimi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida baholanadi. Ularning fikricha, ishlab chiqarish samaradorligi va resurslardan oqilona foydalanish korxonalarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

MDH mamlakatlari olimlari, jumladan, V. Senchagov, L. Abalkin va A. Illarionov tadqiqotlarida iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi milliy iqtisodiyot va korxonalar darajasida tahdidlar hamda risklarni boshqarish tizimi sifatida talqin qilinadi.

Mahalliy olimlar, jumladan, B. Xasanov, A. Alikulov va K. Nurmanovlarning ilmiy ishlarida korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda sanoat infratuzilmasi, energiya ta'minoti hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, energetika resurslarining barqarorligi ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlab, korxonalarning moliyaviy va ishlab chiqarish xavfsizligini mustahkamlaydi.

Shuningdek, mahalliy olimlar — Burxanov A.U., Abulqosimov X.P., Pardayev M.K. va Aminov Z.Yu. — sanoat korxonalarining barqarorligi hamda raqobatbardoshligini oshirish masalalarini tadqiq etgan. Biroq raqobat razvedkasi instrumentlarini iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmi sifatida kompleks qo'llash masalalari yetarli darajada o'rganilmagan.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, energetika ta'minoti va ishlab chiqarish salohiyati sanoat korxonalari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega bo'lib, ular korxonalarning barqaror rivojlanishi hamda raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda sanoat korxonalari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda energetika ta'minoti hamda ishlab chiqarish salohiyatining rolini aniqlashga qaratilgan kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy hodisa va jarayonlar tizimli hamda qiyosiy tahlil usullari asosida o'rganildi.

Avvalo, nazariy tahlil usuli orqali korxonalar iqtisodiy xavfsizligi, energetika resurslari ta'minoti va sanoat ishlab chiqarishining o'zaro bog'liqligi bo'yicha ilmiy adabiyotlar, xorijiy hamda mahalliy tadqiqotchilarning ishlari tahlil qilindi. Bu esa tadqiqotning nazariy asoslarini shakllantirish va muammoning ilmiy talqinini aniqlashtirish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida umumlashtirish hamda iqtisodiy-mantiqiy tahlil usullari yordamida olingan natijalar tizimlashtirildi, shuningdek, sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda energetika resurslari va ishlab chiqarish quvvatlarining strategik ahamiyati asoslab berildi.

Mazkur metodologik yondashuv sanoat korxonalarining barqaror faoliyat yuritishi hamda ularning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'rib chiqilayotgan davrda ishlab chiqarish hajmi umumiy tendensiya sifatida o'sish yo'nalishiga ega bo'lib, ayrim yillarda qisqa muddatli pasayishlar ham kuzatilgan.



1-rasm. O'zbekistonda issiqlik elektr markazlari va issiqlik elektr stantsiyalarining jami o'rnatilgan quvvati (MVt)

2010-2012-yillarda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi deyarli o'zgarmas bo'lib, 10,7 mlrd kVt-soat atrofida shakllangan. Bu holat energetika infratuzilmasining texnologik jihatdan yetarli darajada yangilanmaganligi hamda iqtisodiy faollikning nisbatan barqaror bo'lgan davri bilan izohlanadi. 2013-2016-yillardan boshlab ishlab chiqarish hajmida sezilarli o'sish kuzatiladi. Xususan, 2016-yilda ko'rsatkich 12,2 mlrd kVt-soatga yetib, 2010-yilga nisbatan qariyb 13-14 foizga oshgan.

2017-2019-yillarda o'sish sur'atlari yanada jadallashib, 2019-yilda ishlab chiqarish hajmi 14,0 mlrd kVt-soatdan oshgan. Ushbu davr energetika tarmog'ida modernizatsiya jarayonlarining faollashuvi, yangi quvvatlarning ishga tushirilishi hamda sanoat va xizmatlar sektorida energiyaga bo'lgan talabning ortishi bilan tavsiflanadi. 2020-yilda ishlab chiqarish hajmining o'sishi davom etib, pandemiya sharoitiga qaramay, energetika tarmog'i nisbatan barqaror faoliyat yuritganini ko'rsatadi.

2021-2023-yillarda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 15-16 mlrd kVt-soat oralig'ida shakllanib, tarixiy yuqori darajalarga erishgan. 2024-yilda esa ma'lum darajada pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, umumiy daraja hali ham 2010-2015-yillardagi ko'rsatkichlardan ancha yuqori bo'lib qolmoqda.

Umuman olganda, jadval issiqlik energetikasining O'zbekiston elektr energetika balansidagi yetakchi o'rnini hamda uning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi strategik ahamiyatini ko'rsatadi.

1-jadvalda O'zbekiston Respublikasida barcha manbalar hisobidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasining umumiy hajmi aks ettirilgan bo'lib, u birinchi jadvalda ko'rib chiqilgan issiqlik elektr stantsiyalari faoliyatining makroiqtisodiy miqyosdagi natijalarini yanada kengroq kontekstda baholash imkonini beradi. Jadval ma'lumotlari elektr energetikasi tarmog'ining so'nggi o'n besh yil davomida barqaror va izchil rivojlanganligini yaqqol namoyon etadi.

1-jadval. Elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi (million kVt soat)

Hududlar	2010	2015	2020	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	51976,3	57658,1	66500,7	78005,4	82739,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3100,2	3451,3	4392,4	5152,1	5079
Andijon viloyati	774	674,1	372,6	658,1	820
Buxoro viloyati	5,7	4,9	6,2	2029,3	2582
Jizzax viloyati	0	0	0	0,5	1,1
Qashqadaryo viloyati	5837,7	6310,9	9770,7	8174,9	10099,9
Navoiy viloyati	7376,6	8864	11776,8	10718,9	10847,1
Namangan viloyati	0,2	0,1	5624,6	7025,3	6561,6
Samarqand viloyati	5,8	3,7	73,5	482,8	515



Surxondaryo viloyati	78,6	82,9	82,4	433,6	653,7
Sirdaryo viloyati	15278,3	16718,4	15249,1	16855,5	17532,8
Toshkent viloyati	17935,7	20049,6	18228	20445,1	20003,2
Farg'ona viloyati	455,2	312,8	264,4	401,1	479,2
Xorazm viloyati	752	648,8	209,5	1415,9	1291,1
Toshkent shahri	376,3	518	433,5	4211,7	6273,4

2010-yilda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 52,0 mlrd kVt·soatni tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilga kelib 57,7 mlrd kVt·soatga yetgan. Bu o'sish asosan sanoat ishlab chiqarishining kengayishi hamda urbanizatsiya jarayonlari natijasida energiyaga bo'lgan talabning ortishi bilan izohlanadi.

2016-2018-yillarda ishlab chiqarish hajmi yanada oshib, 2018-yilda qariyb 63,0 mlrd kVt·soatga yetgan. 2019–2021-yillarda esa energetika sohasiga investitsiyalar jalb etilishi hamda yangi generatsiya quvvatlarining ishga tushirilishi natijasida ishlab chiqarish hajmi 71,4 mlrd kVt·soatga ko'tarilgan.

2022-2024-yillarda ushbu ko'rsatkich 82,7 mlrd kVt·soatga yetib, energiyaga bo'lgan talabning izchil ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 2010-2024-yillarda sanoat ishlab chiqarish hajmi 38,1 trln so'mdan 880,2 trln so'mga yetib, qariyb 23 barobarga oshgani sanoat iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

2-jadval. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (yillik), mlrd. so'm

Hududlar	2010	2015	2020	2024
O'zbekiston Respublikasi	38119	97598,2	368740,2	880198,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	697,2	2387,6	13981,3	24323,5
Andijon viloyati	4701,4	9744,6	36376,5	90626,6
Buxoro viloyati	1674,8	5143,9	17574,4	42243,7
Jizzax viloyati	522,7	1474,5	5823,8	24903,7
Qashqadaryo viloyati	4957,5	8721,9	14612,3	39116,8
Navoiy viloyati	4038,5	9286,9	65084,9	145615
Namangan viloyati	1007	2861,8	11011,9	31696,2
Samarqand viloyati	2011,2	6095,5	18383,4	45408
Surxondaryo viloyati	756,4	1910,7	5322,7	13819,8
Sirdaryo viloyati	926,8	2820,6	7990,9	20064,5
Toshkent viloyati	5471,2	14401	65949,9	138555,4
Farg'ona viloyati	3265,5	7170,2	21701,2	45896,1
Xorazm viloyati	628,6	2616	9615,9	28438,8
Toshkent shahri	6984,4	18986,1	66188	171706,2

Tahlil jarayonida 2016-yildan keyingi davr alohida e'tiborga loyiq. Aynan ushbu bosqichda sanoat ishlab chiqarishida sezilarli o'sish kuzatiladi. Jumladan, 2016-yilda 111,9 trln so'm bo'lgan ko'rsatkich 2018-yilda 235,3 trln so'mga, 2021-yilda esa 456,1 trln so'mga yetgan. Bu holat sanoatni modernizatsiya qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish siyosatining kuchayishi bilan izohlanadi.

O'zbekiston hududlari bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishining o'sish sur'atlari uzoq muddatli dinamikada aks ettirilgan. Ushbu ma'lumotlar birinchi jadvalda ko'rib chiqilgan umumiy sanoat rivoji natijalarining hududiy darajada qanday namoyon bo'layotganini tahlil qilish imkonini beradi.

3-jadval. Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (yillik), foiz

Hududlar	2010	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Qoraqalpog'iston Respublikasi	109,4	118,8	104,3	106,4	122,2	102,2	113,6	105,3	106,9
Andijon viloyati	108,9	92,4	70,1	134,9	165,2	119,9	99,9	92,3	143,3
Buxoro viloyati	109,4	113,4	105,1	104,2	102,6	105,9	108,9	114,9	103,2
Jizzax viloyati	116,2	113,9	120,5	109,5	106,7	101,3	116,7	136,6	117
Qashqadaryo viloyati	109,6	110,1	112,7	91,2	100,7	110,2	110,9	95,7	106,7
Navoiy viloyati	112,1	113,7	111,5	92,9	100,1	101,1	102,3	107	104,5
Namangan viloyati	113,7	119,4	122,2	113,2	111,6	111,7	96,4	120,1	118,1
Samarqand viloyati	118,5	108,2	108,9	102,1	111,6	101,6	119,9	112,9	112,7
Surxondaryo viloyati	107,9	116	119,4	97	101,5	108,9	121,2	112,5	101,1
Sirdaryo viloyati	107,7	108,7	111,8	96,6	104,4	101,8	86,3	118,3	119,7
Toshkent viloyati	116,6	122,6	114,5	94,6	111,7	100	115	127	119,9
Farg'ona viloyati	109,7	113,1	112,5	106,5	101,3	102,4	111,4	111,2	100,5
Xorazm viloyati	111,1	124,8	93,8	110,8	130,4	124,1	100,1	117,7	124,9
Toshkent shahri	110,5	114,6	119,4	107,4	101,7	106,2	107	129,2	117,2

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinadiki, aksariyat hududlarda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish sur'atlari yillar kesimida notekis bo'lsa-da, umumiy ijobiy tendensiyaga ega. Xususan, ayrim viloyatlarda 2014-2018-yillarda o'sish sur'atlarining sezilarli tezlashgani kuzatiladi. Bu davrda mahalliy lashtirish dasturlari, kichik sanoat zonalarining tashkil etilishi hamda ichki bozorni to'ldirishga qaratilgan siyosat muhim rol o'ynagan.

Hududlar o'rtasidagi tafovutlar sezilarli bo'lib, bu ishlab chiqarish infratuzilmasi, mehnat resurslari sifati va investitsiyalarni jalb etish darajasidagi farqlar bilan izohlanadi. Masalan, ayrim viloyatlarda o'sish sur'atlarining sekinlashuvi ichki talab dinamikasi yoki ishlab chiqarish quvvatlarining yetarli darajada yangilanmaganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, respublika bo'yicha ishlab chiqarish hajmining oshishi barqaror iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan izohlanadi. Shu bilan birga, hududiy tafovutlar iqtisodiy rivojlanish darajasining turlicha ekanligini aks ettiradi. O'sish sur'atlari hududlarning strategik rivojlanish siyosati, resurslar taqsimoti, sanoat quvvatlari hamda mahalliy investitsiyalar bilan bevosita bog'liqdir.

Shu sababli, kelgusida hududiy barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun resurslardan samarali foydalanish hamda ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida energetika va sanoat tarmoqlari so'nggi o'n yillikda barqaror rivojlanish tendensiyasini namoyon etgan. Elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmining 2010-yildagi 52,0 mlrd kVt-soatdan 2024-yilga kelib 82,7 mlrd kVt-soatga yetishi mamlakat iqtisodiyotida energiya resurslariga bo'lgan talab izchil ortib borayotganini ko'rsatadi.

Mazkur o'sish, avvalo, sanoat ishlab chiqarishining kengayishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi hamda energetika tarmog'ida modernizatsiya va investitsion loyihalarning amalga oshirilishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, issiqlik elektr stansiyalari respublika elektr energetikasi balansida yetakchi o'rinni egallab, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim strategik ahamiyat kasb etayotganini ko'rish mumkin.

Hududlar kesimida iste'mol tovarlari ishlab chiqarishining o'sish sur'atlari notekis bo'lsa-da, umumiy ijobiy dinamika kuzatiladi. Ayrim viloyatlarda yuqori o'sish sur'atlari investitsiya faolligi, sanoat infratuzilmasining rivojlanganligi hamda mahalliy lashtirish dasturlari bilan izohlanadi. Biroq hududlar o'rtasidagi tafovutlar iqtisodiy rivojlanish darajasining bir xil emasligini ko'rsatadi.

Shu sababli, kelgusida hududiy sanoat salohiyatini yanada rivojlantirish, energiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda investitsiyalarni hududlar kesimida muvozanatli taqsimlash iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Fahey, L. (2007). Connecting strategy and competitive intelligence: Refocusing intelligence to produce critical strategy inputs. *Strategic Direction*, 23(4). DOI: <https://doi.org/10.1108/sd.2007.05623dad.003>
2. Бещмков М.А. Экономическая безопасность промышленного предприятия в условиях кризисного развития // *Менеджмент в России и за рубежом*. – 2000. – № 2. – С. 7–17.
3. Исаева Н.А. Экономическая безопасность предприятия // *Вестник Екатеринбургского института*. – 2009.
4. Устинова Л.Н. Экономическая безопасность предприятия: анализ, структура, модель // *Национальные интересы: приоритеты и безопасность*. – 2011. – № 45(138). – С. 67–71.
5. Серебрякова Т.Ю. Сущность и подходы к определению экономической безопасности предприятий // *Вестник НГУЭУ*. – 2015.
6. Корелин В.В. Инструменты обеспечения экономической безопасности промышленного предприятия. – 2016.
7. Доронин А.И. Бизнес-разведка. – Москва: Ось-89, 2010. – 704 с.
8. Лемке Г.Э. Коммерческая разведка для конкурентного превосходства. – Москва: Московская финансово-промышленная академия, 2011. – 352 с.
9. Сатлер В.В. Использование конкурентной разведки для повышения конкурентоспособности предприятия [Электронный ресурс] // *Актуальные вопросы экономических наук*. – 2009. – С. 170–175.
10. Burxanov A.U. Moliyaviy xavfsizlik. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – 164 b.
11. Abulqosimov X.P. Iqtisodiy xavfsizlik. – Toshkent: Akademiya, 2006. – 111 b.
12. Pardayev M.K., Aminov Z.Yu. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi va uni ta'minlash yo'llari. – Samarqand: Zarafshon, 2008. – 47 b.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100